

## AN'ANAVIY OAV VA RAQAMLI OAV ORASIDAGI HUQUQIY BOG'LIQLIK

Aliqulova Zulxumor

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti magistranti

[zulhumor1044@icloud.com](mailto:zulhumor1044@icloud.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20392276>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada an'anaviy ommaviy axborot vositalari va raqamli media platformalari o'rtasidagi huquqiy munosabatlar qiyosiyhuquqiy yondashuv asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy muammosi sifatida an'anaviy OAV uchun ishlab chiqilgan huquqiy normalarning raqamli muhit talablariga to'liq mos kelmasligi ko'rib chiqiladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro huquq normalari hamda Yevropa inson huquqlari sudi amaliyoti tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari raqamli platformalar uchun alohida huquqiy mexanizmlar - vositachilar javobgarligi, "xavfsiz bandargoh" prinsipi va kontent moderatsiyasi tizimi - joriy etilishi zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** raqamli huquq, OAV, platformalar, vositachilar javobgarligi, so'z erkinligi, moderatsiya, DSA.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится исследование правовых отношений между традиционными средствами массовой информации и цифровыми медиаплатформами на основе сравнительноправового подхода. В качестве основной проблемы рассматривается несоответствие правовых норм, разработанных для традиционных СМИ, требованиям цифровой среды. В статье анализируются законодательство Республики Узбекистан, нормы международного права, а также практика Европейского суда по правам человека. Результаты исследования показывают необходимость внедрения специальных правовых механизмов для цифровых платформ-ответственности посредников, принципа "безопасной гавани" и системы модерации контента.

**Ключевые слова:** цифровое право, СМИ, платформы, ответственность посредников, свобода слова, модерация, DSA.

### ABSTRACT

This article examines the legal relations between traditional mass media and digital media platforms using a comparative legal approach. The main issue addressed in the study is the inadequacy of legal norms developed for traditional media in meeting the requirements of the digital environment. The article analyzes the legislation of the Republic of Uzbekistan, international legal norms, and the case law of the European Court of Human Rights. The research findings indicate the necessity of introducing specific legal mechanisms for digital platforms, including intermediary liability, the "safe harbor" principle, and content moderation systems.

**Keywords:** digital law, mass media, platforms, intermediary liability, freedom of expression, moderation, DSA.

Raqamli texnologiyalar rivojlangani sari axborot makoni ham o'zgaroqda: an'anaviy bosma nashrlar va efir televideniyesi o'z o'rnini tobora ko'proq raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va blogosferaga bo'shatmoqda. XX asrning ikkinchi yarmida axborot tarqatishning asosiy subyektlari matbuot muassasalari, radio va televidenie bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda

millionlab fuqarolar bir vaqtning o'zida axborot ishlab chiqaruvchi, tarqatuvchi va iste'molchisi sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu holat qonunchilik tizimi oldiga yangi, o'ta murakkab muammo qo'ymoqda: an'anaviy OAV uchun ishlab chiqilgan klassik huquqiy normalar raqamli muhitning o'ziga xos talablariga to'liq javob bera oladimi?

Muammoning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, raqamli platformalar an'anaviy OAVga xos bo'lgan muharrir nazorati, ro'yxatdan o'tish va nashr tartibi talablaridan erkin ishlaydi. Ikkinchidan, ushbu platformalar orqali tarqaladigan dezinformatsiya, nafrat nutqi va noqonuniy kontent jamiyat uchun katta xavf tug'dirmoqda. Uchinchidan, platforma va foydalanuvchi munosabatida javobgarlik masalasi hamon hal etilmagan: an'anaviy OAVda muharrir kontent uchun javobgar bo'lsa, ijtimoiy tarmoqda bu mas'uliyat kimning zimmasida?

Ushbu maqolaning tadqiqot maqsadi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro standartlar asosida an'anaviy hamda raqamli OAV o'rtasidagi huquqiy bog'liqlikni tahlil etish, mavjud qonunchilik kamchiliklarini aniqlash va maqbul tartibga solish mexanizmlarini taklif qilishdan iborat. Tadqiqot gipotezasi sifatida quyidagi tezis ilgari suriladi: an'anaviy OAV uchun mo'ljallangan klassik huquqiy normalar raqamli muhit talablariga to'liq javob bera olmaydi va bu holat alohida qonunchilik mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2007-yilda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuni 4-moddasiga ko'ra, OAV gazetalar, jurnallar, byulletenlar (bosma) hamda radioeshittirish, teleeshittirish va internetnashrlar (elektron shakl) sifatida belgilanadi. Qonunning 20-moddasi veb-saytlarni OAV sifatida ro'yxatdan o'tkazish imkoniyatini belgilab, ularni an'anaviy OAV bilan bir xil huquqiy mexanizmga kiritgan. Faqatgina internet nashrlarning tarqatilish hududi va hajmini ko'rsatish talab etilmaydi. Shu bilan birga, ro'yxatdan o'tmagan internetnashrlar, bloglar va ijtimoiy tarmoq sahifalari ushbu qonun doirasida tartibga solinmaydi.<sup>1</sup>

An'anaviy OAV uchun belgilangan huquqiy talablar quyidagilardan iborat: majburiy ro'yxatdan o'tish; muharrir mas'uliyati - barcha nashr etilgan materiallar uchun tahriyat jamoasi mas'ul; nashr chastotasi va muddatlari bo'yicha qat'iy talablar; sudda taqdim etish uchun arxiv nusxalarini saqlash majburiyati. Ushbu mexanizm matbuot, radio va televideniening barcha turdagi faoliyatini qamrab olgan bo'lib, o'nlab yillar davomida samarali ishlagan.

Raqamli axborot muhiti an'anaviy ta'riflar qolipiga to'liq mos kelmaydigan bir qator yangi subyektlarni yaratdi. Ularni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin: birinchisi - ro'yxatdan o'tgan internetnashrlar; ikkinchisi - tartibga solinmagan kontent tarqatuvchilar; uchinchisi - platforma vositachilar (Facebook, YouTube, Telegram, Instagram kabi xizmatlar)<sup>2</sup>.

Bu klassifikatsiyaning huquqiy ahamiyati shundaki, har bir guruhga nisbatan javobgarlik rejimi tubdan farqlanadi. Ro'yxatdan o'tgan internetnashr an'anaviy OAV qonuniga bo'ysinadi; tartibga solinmagan kontent yaratuvchi fuqarolik va ma'muriy huquq normalariga ko'ra javob beradi; platforma vositachi esa texnik infratuzilma sifatida tavsiflanib, odatda bevosita javobgarlikdan ozod qilinadi. Biroq bu chegaralar amaliyotda to'liq amalga oshirilmaydi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuni, URL: <https://lex.uz/uz/docs/-1106870>

<sup>2</sup> Lessig, L. (2004). Free Culture: The Nature and Future of Creativity. Penguin Press.

Yevropa Ittifoqining Elektron Tijorat Direktivi (2000/31/EC) va uning vorisi bo'lmish Raqamli Xizmatlar To'g'risidagi Akt (DSA, 2022/2065) "xavfsiz bandargoh" prinsipini belgilaydi: agar platforma noqonuniy kontent haqida xabardor bo'lib, uni o'chirish choralari ko'rgan bo'lsa - u javobgarlikdan ozod bo'ladi<sup>3</sup>. DSA bir qadamdan oldinga borib, yirik platformalar ("Very Large Online Platforms" - VLOP) uchun tizimli riskni baholash, algoritm shaffofligi va mustaqil audit majburiyatlarini joriy etgan.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi vositachilar javobgarligi masalasini to'liq tartibga solgan deb bo'lmaydi. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunning 17 - moddasi internet provayderlarning texnik vositachi sifatidagi maqomini belgilaydi, lekin ijtimoiy tarmoqlar va kontent platformalariga nisbatan muayyan qoida mavjud emas.<sup>4</sup> "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonun esa ro'yxatdan o'tmagan platformalarga qo'llanilmaydi.

2025-yilda muhokamaga qo'yilgan "Onlayn platforma va saytlar foydalanuvchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi<sup>5</sup> qonun loyihasi ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Loyihaning maqsadi, 10 000 dan ortiq obunachiga ega bo'lgan Telegram kanallari, YouTube bloglari va Instagram sahifalari uchun qo'shimcha talablar joriy etiladi: 24 soat ichida noqonuniy kontentni o'chirish; vakillik idorasini tashkil etish; foydalanuvchilar shikoyatlarini ko'rish mexanizmini yaratish hisoblanadi.

BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakti (ICCPR, 1966) 19-moddasi so'z erkinligini asosiy inson huquqi sifatida mustahkamlaydi, ammo ushbu huquqning cheklanishi ham maqbul deb topiladi - agar cheklov qonun bilan belgilangan, zaruriy va proporsional bo'lsa<sup>6</sup>. BMT Inson Huquqlari Qo'mitasining umumiy sharhi ushbu mezonlarni batafsil izohlaydi va raqamli muhitda so'z erkinligining qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratadi.

Dezinformatsiyaning tarqalishi raqamli davrning eng keskin huquqiy muammolaridan biriga aylandi. O'zbekiston qonunchiligida yolg'on axborot tarqatish uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 40- moddasida aytilganidek tuhmat, ya'ni bila turib yolg'on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oltmish baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Yevropa Ittifoqining DSA akti dezinformatsiyaga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri jazo yechimini ko'zda tutmaydi; o'rniga, yirik platformalar tizimli riskni baholash va kamaytirish choralari ko'rishini, hamda tadqiqotchilar va jurnalistlarga ma'lumotlarga kirish imkonini ta'minlashi shart deb belgilaydi. Bu yondashuv so'z erkinligini saqlab, platforma mas'uliyatini kuchaytirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Zamonaviy raqamli platformalar foydalanuvchilar kontentini nazorat qilishda asosan ikkita mexanizmga tayanadi: algoritm (avtomatik aniqlash va cheklash) va jamiyat qoidalari (vakolatli organlar tomonidan nazorat va cheklash). Muammo shundaki, bu ichki qoidalar ko'pincha milliy qonunchilik talablaridan ham qattiqroq yoki aksincha, ancha bo'sh bo'ladi. Masalan, Facebookning global miqdoriy o'chirish siyosati O'zbekiston fuqarolarining qonuniy huquqlari bilan ziddiyat tug'dirishi mumkin.

<sup>3</sup> Regulation (EU) 2022/2065 of the European Parliament and of the Council of 19 October 2022 on a Single Market For Digital Services (Digital Services Act).

<sup>4</sup> "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun, URL: <https://lex.uz/uz/docs/-83472>

<sup>5</sup> <https://regulation.adliya.uz/project/6294/12680?contentLang=oz>

<sup>6</sup> BMT Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, URL: <https://lex.uz/docs/-2640479>

Bu holat ekstraterritorial ta'sir muammosini keltirib chiqaradi: chet el kompaniyasining ichki qoidalari O'zbekiston fuqarosining huquqlarini cheklagan taqdirda, qaysi mamlakat qonunchiligi qo'llaniladi? Ushbu masala hali milliy qonunchilikda aniq tartibga solinmagan bo'lib, yurisdiksiya masalasida katta bo'shliq borligini ko'rsatadi.

Raqamli muhitda an'anaviy OAV materiallaridan ruxsatsiz foydalanish plagiat, repost va kontent o'g'irlanishi - mualliflik huquqi sohasida keskin muammo yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni mualliflik huquqini umumiy asosda tartibga soladi, ammo raqamli muhitga moslashtirilgan maxsus normalar yetarli emas<sup>7</sup>.

Fair Use (Adolatli foydalanish) doktrinasini AQSh qonunchiligida (Copyright Act, 17 U.S.C. § 107) batafsil ishlab chiqilgan bo'lib, maqsad, foydalanish tabiati, asar xarakteri va bozor ta'siri kabi mezonlar asosida ruxsatsiz foydalanishning ma'lum turlarini qonuniy deb tan oladi. Yevropa qonunchiligida bu tushuncha "cheklovlar va istisnolar" shaklida ifodalangan<sup>8</sup>.

O'zbekiston qonunchiligida bu doktrinaning to'liq analogi mavjud emas. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 33-moddasi ayrim istisnolarni ko'rsatgan bo'lsada, raqamli muhitdagi repost, agregatsiya va kontent ulashish amaliyotiga nisbatan samarali mexanizm ishlab chiqilmagan. Bu holat, xususan, yangiliklar agregatochilarning turli OAV saytlaridan materiallarni to'plash amaliyotini huquqiy jihatdan asossiz qoldirmoqda.

Tahlil natijalari bir necha muhim xulosaga olib keladi. Birinchidan, an'anaviy OAV va raqamli media o'rtasidagi huquqiy munosabat bir o'lchamli emas: ular ba'zi sohalar (so'z erkinligi, yolg'on axborot taqiqi) bo'yicha umumiy standartlarga ega bo'lsa, boshqa sohalar (javobgarlik rejimi, ro'yxatdan o'tish tartibi, vositachilik) bo'yicha tubdan farqlanadi.

Ikkinchidan, O'zbekiston qonunchiligi uchun ikkita global modeldan birini tanlash zarurati tug'ilmoqda: an'anaviy OAV talablarini raqamli platformalarga kengaytirish ("an'anaviy model") yoki raqamli platformalar uchun alohida huquqiy rejim yaratish ("differensial model"). Xalqaro tajriba, xususan Yevropa Ittifoqining DSA akti ikkinchi modelning ustuvorligini ko'rsatmoqda.

Uchinchidan, vositachilar javobgarligi masalasida "xavfsiz bandargoh" prinsipini O'zbekiston huquq tizimiga moslashtirish zarur. Bunda platforma faol nazorat funksiyasini bajarmagan taqdirda javobgarlikdan ozod qilinishi, biroq noqonuniy kontent haqida xabardor bo'lgandan so'ng tegishli choralar ko'rmaganlik uchun javob berishi lozimligi belgilanishi kerak.

To'rtinchidan, kontent moderatsiyasi va algoritmlar sohasida shaffoflik talabini joriy etish maqsadga muvofiq. Yirik platformalar o'zbek tilidagi kontent uchun qo'llayotgan moderatsiya mezonlari va algoritmlarni ochiq e'lon qilishlari lozim.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi raqamli OAV va internet platformalarini tartibga solish uchun yetarli darajada moslashmagan. Mavjud Qonunning an'anaviy OAV doirasida ishlab chiqilganligi, platformalar, bloggerlar va ijtimoiy tarmoq guruhlari uchun aniq huquqiy mexanizmlar yetishmasligi - bu holat raqamli axborot muhitida huquqiy bo'shliqlar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>

<sup>8</sup> <https://www.copyright.gov/fair-use/>

Xalqaro standartlar, jumladan, ECHR pretsedentlari va Yevropa Ittifoqining DSA akti tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar uchun an'anaviy OAV normalaridan farqli, ammo ularga uyg'unlashtirilgan huquqiy rejim maqbuldir.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuni, URL: <https://lex.uz/uz/docs/-1106870>
2. O'zbekiston Respublikasining " Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
3. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun, URL: <https://lex.uz/uz/docs/-83472>
4. <https://regulation.adliya.uz/project/6294/12680?contentLang=oz>
5. BMT Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, URL: <https://lex.uz/docs/-2640479>
6. Lessig, L. (2004). Free Culture: The Nature and Future of Creativity. Penguin Press.
7. Regulation (EU) 2022/2065 of the European Parliament and of the Council of 19 October 2022 on a Single Market For Digital Services (Digital Services Act).
8. <https://www.copyright.gov/fair-use/>